



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

# **"Jamiyatda inson huquqlarining o'rni"**

Umumiy o'rta ta'lim maktab 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

# Asosiy tushunchalar

**Jamiyat** — bir hududda yashovchi, o'zaro munosabatda bo'luvchi va umumiy qoidalar asosida hayot kechiruvchi kishilar majmuidir. Jamiyat odamlarning hamkorligi, o'zaro yordami va umumiy manfaatlari asosida shakllanadi. Jamiyat — bu odamlar orasidagi rishta va birlikning natijasidir.

**Shaxs** — jamiyat a'zosi bo'lib, o'z fikri, qarashlari va mas'uliyatiga ega bo'lgan insondir. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, nafaqat huquqlarga, balki muayyan majburiyatlarga ham ega bo'ladi. Shaxs jamiyatning faol va mas'ul a'zosi hisoblanadi.

**Inson huquqlari** — har bir insonga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan hamda uning erkin va munosib hayot kechirishini ta'minlaydigan asosiy huquq va erkinliklardir. Bu huquqlar insonning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilib, uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.



Jamiyatda inson huquqlarining hurmat qilinishi **adolatli va barqaror ijtimoiy muhitni** yaratishga xizmat qiladi. Bu uchala tushuncha o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi.

# Inson huquqlari xususiyatlari

Inson huquqlari bir qancha muhim xususiyatlarga ega bo'lib, ularni boshqa huquqlardan ajratib turadi. Bu xususiyatlarni bilish har bir o'quvchi uchun muhimdir.



## Mutlaq huquq

Inson huquqlari tug'ilganidan boshlab har bir insonga beriladi. Bu huquqlar qandaydir xizmat yoki yutuq evaziga emas, balki inson bo'lganligi uchungina unga tegishlidir.



## Umumiy huquq

Inson huquqlari millatidan, jinsi, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlarga taalluqlidir. Hech kim bu huquqlardan mahrum qilinishi mumkin emas.



## Himoya qilingan huquq

Inson huquqlari qonun va Konstitutsiya orqali himoya qilinadi. Davlat bu huquqlarni ta'minlash va buzilgan taqdirda tiklash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.



## O'zaro bog'liq huquq

Inson huquqlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bir huquqning buzilishi boshqa huquqlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli huquqlar majmui sifatida himoya qilinadi.

# 1-keys: Jamiyat, shaxs va inson huquqlari

## Vaziyat tavsifi

Shahardagi yirik savdo markazlaridan birida yoshlar ijtimoiy tadbir tashkil etishdi. Tadbir davomida ishtirokchilarga o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati yaratilishi ko'zda tutilgan edi.

Biroq tadbir tashkilotchilaridan biri ayrim ishtirokchilarning so'zini bo'lib, faqat o'ziga ma'qul kelgan fikrlarigina tinglashga ruxsat berdi. Natijada ba'zi yoshlar o'z fikrini ochiq ayta olmadi va muhokamada qatnashishdan bosh tortdi.

Bu holat tadbirning asosiy maqsadiga putur yetkazib, ishtirokchilar o'rtasida norozilik keltirib chiqardi.


## Muhokama savollari:

1. Mazkur vaziyatda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat qanday tarzda buzildi?
2. Inson huquqlari deganda nimani tushunasiz va bu yerda qaysi huquq poymol etildi?
3. Nima uchun jamiyatda har bir shaxsning fikri qadrligi?
4. Agar so'z erkinligi cheklansa, jamiyatda qanday muhit yuzaga keladi?
5. Ushbu holatni adolatsizlik deb baholash mumkinmi? Nima uchun?

# Inson va jamiyat manfaatlarining uyg'unligi

## Muvozanat — barqarorlikning asosi

Har bir inson o'z manfaatlariga ega. Shu bilan birga, jamiyatning ham umumiy manfaatlari mavjud. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shaxs va jamiyat manfaatlari o'zaro uyg'un bo'lishi muhimdir.



**Agar shaxs faqat o'z manfaatini ko'zlasa:** Jamiyatda tartibsizlik, nizolar va beqarorlik kelib chiqadi. Boshqalarning huquqlari poymol etiladi.

**Agar jamiyat shaxs huquqlarini inobatga olmasa:** Shaxs erkinligi cheklanadi, inson qadr-qimmati kamsitiladi, zulm va adolatsizlik yuzaga keladi.

Demokratik jamiyatlarda bu muvozanat qonunlar, huquqiy me'yorlar hamda ijtimoiy qoidalar orqali ta'minlanadi. O'zaro hurmat va mas'uliyat — uyg'unlikning kalitidir.

## 2-keys: Shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligi

### Vaziyat tavsifi

Shahardagi turar joy massivida bir guruh yoshlar kechasi baland ovozda musiqa tinglab, hordiq chiqarishdi. Ular o'z xatti-harakatlarini *"o'z vaqtimizni xohlaganicha o'tkazyapmiz, bu bizning huquqimiz"* deya izohlashdi.

Biroq shu hududda istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolar, ayniqsa keksalar va kichik yoshdagi bolalari bor oilalar bu shovqindan bezovtalandi.

### Muhokama savollari

1. Bu vaziyatda shaxsiy va jamoat manfaatlari qanday to'qnash kelmoqda?
2. O'z huquqidan foydalanish boshqalarga zarar yetkazishi mumkinmi?
3. Nega manfaatlar uyg'unligi muhim?
4. Bu holatda qaysi tomonning huquqi ustun turishi kerak?
5. Agar bunday holatlar davom etsa, qanday ijtimoiy muammolar kelib chiqadi?
6. Eng to'g'ri yechim qanday bo'lishi kerak edi?



**Muhim tamoyil:** O'z huquqingdan foydalanish boshqalarning huquqini cheklamasligi kerak.

# O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — inson huquqlarining kafolati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni bo'lib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng muhim huquqiy kafolati hisoblanadi. Unda **inson hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat** sifatida belgilangan.

## Yashash huquqi

Har bir inson hayot kechirishga va xavfsizlikka haqli. Davlat fuqarolarning hayotini himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## Ta'lim olish huquqi

Bepul umumiy ta'lim olish kafolatlanadi. Har bir fuqaro o'z bilim va malakasini oshirish imkoniyatiga ega.

## Mehnat qilish huquqi

Fuqarolar erkin kasb tanlash va mehnat qilish huquqiga ega. Majburiy mehnat taqiqlanadi.

## Erkin fikr bildirish

Har bir inson o'z fikrini so'z, matbuot va boshqa vositalar orqali erkin ifoda etish huquqiga ega.

## Sud orqali himoya

Huquqlari buzilgan fuqaro sudga, prokuraturaga yoki boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat qilishi mumkin.

## Tibbiy yordam olish

Davlat fuqarolarning sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kafolatlaydi.

- ✔ Konstitutsiyaning muhim jihati: **barcha fuqarolar qonun oldida teng** hisoblanadi. Hech kim millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilariga ko'ra kamsitilishi mumkin emas.

# 3-keys: Konstitutsiya — inson huquqlarining kafolati

## Vaziyat tavsifi

Shahardagi bir guruh yoshlar yo'lining yomon holati fuqarolar xavfsizligiga tahdid solayotganini ko'rib, ushbu muammo yuzasidan tegishli davlat organiga jamoaviy murojaat yubordi.

Dastlab murojaatga yetarli e'tibor berilmadi. Shundan so'ng yoshlar qonuniy tartibda takroran murojaat yuborib, yuqori turuvchi davlat organlariga ham murojaat qildi.

Natijada muammo vakolatli organlar tomonidan o'rganilib, yo'l ta'mirlandi va xavfsizlik bilan bog'liq muammo bartaraf etildi.

## Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatda Konstitutsiya qanday rol o'ynadi?
2. Nega murojaat qilish muhim?
3. Agar fuqarolar bu huquqdan foydalanmasa, nima bo'ladi?
4. Davlat organlarining javobgarligi nimada ko'rinadi?
5. Bu holat huquqlar kafolatlanganini isbotlaydimi? Nima uchun?



**Huquqiy asos:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, har bir fuqaro davlat organlariga ariza, shikoyat yoki taklif bilan murojaat qilish huquqiga ega.

# Shaxsning huquqiy maqomi

## Huquqiy maqom nima?

Shaxsning huquqiy maqomi — bu insonning jamiyat va davlatdagi huquqiy holatini belgilovchi **huquq, erkinlik va majburiyatlar yig'indisidir**. Ya'ni, har bir insonning qanday huquqlarga ega ekanligi, qanday majburiyatlarni bajarishi hamda qonun oldidagi javobgarligi uning huquqiy maqomini tashkil etadi.



Huquq va majburiyatlar o'zaro bog'liq bo'lib, inson faqat o'z majburiyatlariga amal qilgan holdagina huquqlaridan to'liq foydalanishi mumkin.

# 4-keys: Shaxsning huquqiy maqomi — aybsizlik prezumpsiyasi

## Vaziyat tavsifi

Bir o'quvchi jamoat joyida sodir etilgan qoidabuzarlik bilan bog'liq holatda gumon qilindi. U voqea joyida bo'lgan, biroq qoidabuzarlikni aynan uning o'zi sodir etganligi hali **isbotlanmagan** edi.

Shunga qaramay, ayrim insonlar uni darhol ayblay boshladi, ijtimoiy tarmoqlarda esa unga nisbatan turli salbiy fikrlar va asossiz ayblovlar tarqatildi. Bu o'quvchining sha'ni va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Keyinchalik tekshiruv natijasida o'quvchining ushbu qoidabuzarlikka aloqasi yo'qligi aniqlanib, uning aybsizligi isbotlandi.



## Aybsizlik prezumpsiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Hech kim sud qarorisiz jinoyatchi deb e'lon qilinishi mumkin emas.

## Muhokama savollari

1. Mazkur vaziyatda shaxsning huquqiy maqomi qanday buzilgan?
2. Nima uchun shaxs sud qarorisiz aybdor deb e'lon qilinmasligi kerak?
3. Insonning sha'ni va qadr-qimmatini qanday himoya qilinadi?
4. Agar bunday holatlar ko'paysa, jamiyatda qanday muammolar kelib chiqadi?
5. Huquqiy davlatda bu kabi vaziyat qanday hal etilishi lozim?

# Teng huquqlilik va gender tengligi

## Tenglik — adolatli jamiyatning asosi

Teng huquqlilik — bu jamiyatdagi barcha insonlarning millati, jinsi, tili, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar, **qonun oldida teng bo'lishidir**. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega hamda qonun bilan teng himoya qilinadi.

## Teng huquqlilik tamoyili

Teng huquqlilik tamoyili insonlarning ta'lim olish, mehnat qilish, tibbiy xizmatdan foydalanish, sud orqali himoyalaniish va davlat boshqaruvida ishtirok etish kabi huquqlarini teng ravishda ta'minlashga xizmat qiladi.

- Hech kimga asossiz imtiyoz berilmasligi
- Hech kim kamsitilmasligi
- Barcha uchun bir xil qonun qoidalari
- Tenglik — adolat va qonun ustuvorligining asosi

## Gender tengligi

Gender tengligi esa erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Ayollar ham, erkaklar ham quyidagi huquqlarga teng ega bo'lishi kerak:

- Ta'lim olish va kasb tanlash
- Rahbarlik lavozimlarida ishlash
- Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish
- Iqtisodiy mustaqillik va faoliyat



Gender tengligi jamiyatning barqaror rivojlanishiga, oilalar farovonligiga va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## 5-keys: Teng huquqlilik va gender tengligi

### Vaziyat tavsifi

Maktabda o'quvchilar o'rtasida sport musobaqasi tashkil etildi. Biroq tashkilotchilar ayrim qizlarning musobaqada ishtirok etishiga ruxsat bermay, *"bu sport turi faqat o'g'il bolalarga mos"* degan fikrni bildirdi.

Natijada qizlar o'z qobiliyati, iste'dodi va sportdagi imkoniyatlarini namoyon etish huquqidan mahrum bo'ldi. Bu esa teng huquqlilik va gender tengligi tamoyillariga zid hisoblanadi.

- **Konstitutsiyaviy kafolat:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, erkaklar va ayollar teng huquqlarga ega. Har bir inson jinsi, millati yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar, sport bilan shug'ullanish huquqiga ega.

### Muhokama savollari

1. Bu vaziyatda teng huquqlilik tamoyili qanday buzilgan?
2. Gender tengligi nimani anglatadi?
3. Nima uchun imkoniyatlar jinsga qarab cheklanmasligi kerak?
4. Bu holat o'quvchilarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Agar bunday yondashuv davom etsa, jamiyatda qanday tengsizliklar yuzaga keladi?
6. To'g'ri yondashuv qanday bo'lishi kerak edi?

# Zo'ravonlik turlari va oldini olish choralari

Zo'ravonlik — bu bir insonning boshqa bir insonga jismoniy, ruhiy yoki iqtisodiy zarar yetkazish bilan bog'liq harakatidir. Zo'ravonlik inson huquqlarini poymol qiladi va jamiyatda nosog'lom muhitni yuzaga keltiradi.

Zo'ravonlik shakllari

## Jismoniy zo'ravonlik

Insonga jismoniy shikast yetkazish, urish, majburlash

## Ruhiy / psixologik tazyiq

Haqorat, masxara qilish, qo'rqitish, kamsitish

## Iqtisodiy tazyiq

Moddiy jihatdan majburlash yoki boyliklarni tortib olish

## Jinsiy zo'ravonlik

Jinsga asoslangan ta'ziq, shilqimlik va boshqa shakllari



Zo'ravonlikdan xoli jamiyatda insonlar o'zlarini xavfsiz his qiladi va bunday jamiyat barqaror rivojlanadi.

## Oldini olish choralari

- Inson huquqlariga hurmat bilan yondashish va qadriyatlarini o'rganish
- Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish
- Zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish
- Zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etish

## 6-keys: Zo'ravonlikning oldini olish — Bullying

### Vaziyat tavsifi

Maktabga yangi kelgan o'quvchi ayrim sinfdoshlari tomonidan muntazam ravishda masxara qilina boshladi. Unga nisbatan turli mazaxli gaplar aytili, bosim o'tkazildi va asta-sekin bu holat **ruhiy zo'ravonlikka** aylandi.

Atrofdagi o'quvchilar va ayrim kattalar vaziyatni kuzatib turgan bo'lsa-da, ko'pchilik bunga aralashmadi. Natijada jabrlanuvchi o'zini yolg'iz va himoyasiz his qila boshladi, ruhiy tushkunlikka tushib, hatto maktabga borishni ham istamay qo'ydi.

⊗ **Eslang:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech kimni kamsitish, haqorat qilish yoki unga nisbatan zo'ravonlik qilish mumkin emas.

### Muhokama savollari

1. Bu vaziyatda zo'ravonlik qaysi shaklda namoyon bo'lmoqda?
2. Nega bunday holatlarning o'z vaqtida oldi olinishi kerak?
3. Atrofdagilarning befarqligini qanday baholash mumkin?
4. Zo'ravonlik inson huquqlariga qay darajada zarar yetkazadi?
5. Agar bu holat davom etsa, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
6. Zo'ravonlikning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish lozim?

# Asosiy xulosalar

## Jamiyat va shaxs

Jamiyat va shaxs bir-birini to'ldiradi. Inson jamiyatda o'z o'rnini topib, huquq va majburiyatlarini to'liq anglashi lozim.

## Muvozanat muhim

Shaxs va jamiyat manfaatlari o'zaro uyg'un bo'lgandagina barqaror va adolatli jamiyat qurilishi mumkin.

## Konstitutsiya — kafolat

O'zbekiston Konstitutsiyasi barcha fuqarolarning huquqlarini kafolatlaydi va ularni himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

## Tenglik — demokratiya asosi

Teng huquqlilik va gender tengligi adolatli jamiyatning muhim tamoyillari bo'lib, har bir inson uchun teng imkoniyat yaratishni talab etadi.

## Zo'ravonliksiz jamiyat

Zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik, huquqiy madaniyat va o'zaro hurmat xavfsiz jamiyat uchun zarur sharoitlardir.

"Inson huquqlari — bu imtiyoz emas, balki har bir insonning tug'ilganidan boshlab berilgan tabiiy va muqaddas huquqidir."